

**O'QUVCHILARNING NUTQ KOMPETENSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
INTERFAOL O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH**

Aytmatova Gulxan Saparmamet gizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini interfaol usullardan foydalanib rivojlantirish haqida berilgan.*

Kalit so'zlar: *og'zaki nutq, interaktiv usullar, hikoya metodi, sayohat o'yini ijodkorlik, faollik.*

Odamlar qadim zamonlardan oq bir-biri bilan bevosita muloqotda bo'lgan deb ayta olamiz .

Shuning uchun ham inson nutqi birinchi navbatda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim sohasini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish, innovasion o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish hamda nutq kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plandi. Maktablarda o'qitish texnologiyalari asosida ta'lim berish yo'lga qo'yilgandan beri o'quvchilarning o'qishga bolgan qiziqishi yanada ortdi. Sababi biz axbarot texnologiyalar asrida yashabmiz . Texnologiyalar hayotimizning bir bo'lagiga aylangan desam ham mubolag'a bo'lmaydi. O'qitish texnologiyalari kichik yoshdagi bolalarning nutqini to'g'ri rivojlanishida katta hissa qo'shib kelmoqda. Sababi o'quvchilar nimanidir eshitib tinglab ko'rib shunga qarab nutqini o'zgartirishga, to'g'irlashga harakat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchi yoshlarga ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutqini rivojlantirish uchun alohida yondashish kerak. O'quvchilarning nutqi aniq va ravon bo'lib rivojlanishi kerak. Noaniq nutq o'quvchilarning kelajakdagi ishlari, suhbatlari va muloqodi uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutqning to'g'ri rivojlanishida ona tilining ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun o'quvchilarga o'z ona tilida haqiqiy suhbat qura oladigan vaziyatlarni yaratib berish, ularni o'z ona tilida ravon so'zlasha oladigan qilib tarbiyalash zarur. Bu borada Bigatening quyidagi fikrlariga tayanishimiz mumkin: „Bizning o'quvchilarimiz eng muhim vazifalarni bajarish uchun ko'pincha ishonch bilan gapira olishlari kerak. Bu ularni eng ko'p baholaydigan tajriba va ular bu tajriba orqali ko'plab do'stlar orttirishlari yoki yo'qotishlari mumkin.“.[M. Bigate „Nutq“ – Nyu-York. Oxford universiteti matbuoti].

O'quvchilarning nutqiy malakasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha interfaol usullar mavjud. Darslarda faqat birhilik bo'lsa, bir narsa u, o'quvchilar juda charchashadi. Shuning uchun o'quvchilar turli usullardan foydalangan holda nutq qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

„Hikoya“ usuli. Bu interfaol usulda o'qituvchi doskaga bir nechta so'zlarni yozadi. Masalan: kitob, soat, yomg'ir, adabiyot va hokazo. O'quvchilar mustaqil

ravishda shu soʻzlar asosida hikoya tuzishlari va uni gapirib berishlari kerak boʻladi. Bunday usulda oʻtilgan dars oʻquvchi nutqini rivojlantirish uchun katta yordam beradi. Oʻquvchilar bunda ham fikrlash qobiliyatlarini ham ijodkorligini hamda nutqini rivojlantirib borishlari mumkin. [www.ziyonet.uz].

Oʻquvchilarning nutqini rivojlantirishda nafaqat interfaol usullardan balki turli hil oʻyinlardan ham foydalanish mumkin.

„Safar“ oʻyini. Bu oʻyinda oʻquvchilarga maktabdan yoki uydanlaridan maʼlum bir joyga boradigan yoʻlni tasvirlash topshiriladi. Oʻquvchilar bir necha kun davomida “obyekt”ni mustaqil kuzatishadi va uni oʻqituvchilariga gapirib berishlari kerak boʻlad. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-eʼtibor talab etiladigan bu oʻyin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga eʼtiborli boʻlish hislarini tarbiyalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda bu interfaol oʻyin va usullardan foydalangan holda dars oʻtilsa oʻquvchilarning nutqiy koʻnikmalari yaxshilanadi, soʻz boyligi yana oshadi, mustaqil fikrlash saviyasi shakllanadi. Agar bolaning nutqi boy va toʻgʻri boʻlsa, unga oʻz fikrini bayon qilishi oson boʻladi, voqea-hodisalarni bilish qobiliyati kengroq boʻladi. Aksincha, bolaning tushunarsiz nutq uning odamlar bilan munosabatini murakkablashtiradi va koʻpincha uning xarakterida ogʻir iz qoldiradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda inson faoliyatining muhim vositalaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchilar uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish quroli deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”—T.: 2008 y.
2. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha nashrdagi davlat taʼlim standarti. Boshlangʻich taʼlim jurnali -T. : 2005 yil.
3. M. Bigate “Nutq” – Nyu-York. Oxford universiteti matbuoti.
4. Sh.Sariyev. Boshlangʻich sinf darsliklarida nutq koʻnikmalarini rivojlantirish—Guliston: 2008
5. www.ziyonet.uz